

ARAB TILIDA IZOHLOVCHI (بدل) VA UNING TURLARI

Mustafoyeva Nargiza Ikrom qizi

T.D.SH.U.ning lingvistika yo'nalishi 2-kurs magistranti

(90)3223298 nargiza.mustafayeva@my.com

بدل bu o'zidan oldin kelgan so'zni aniqlab, izohlab keluvchi va uning erobiga ergashuvchi so'zdir. Masalan, مررت بأخيك زيد (Akang Zaydning oldidan o'tdim.) jumlasida زيد so'zi اخ so'zini izohlab ma'nosini yana aniqlab kelmoqda va uning gapdagi sintaktik vazifasini bajarib ynga to'liq moslashgan holda kelmoqda.

Ibn Hishom بدل so'zining lug'atda va grammatikadagi istiloh sifatida ma'nosini quyidagicha izohlaydi: " Lug'atda bu so'z o'rnini bosuvchi (عوض) ma'nosida qo'llanilsa istilohda esa bu izohlovchi bo'lib, o'zidan oldingi so'zga hech qanday vosita yordamisiz ergashadi va unga hukmga sherik bo'ladi".

Izohlovchining boshqa moslashuvchi so'zlardan farqi shundaki, u o'zi ergashayotgan so'zning ma'nosini kuchaytirish yoki yangilishlikni oldini olsih maqsadida emas, balki uni izohlash ma'nosida keladi hamda hech qanday vositasiz ergashib keladi. Bundan tashqari, ushbu morfologik tushunchadan qism va butunlikni bildirish, shaxsiga nisbatan alohida urg'u berish uchun ham foydalanamiz.

O'zbek tili grammatikasiga qiyoslaydigan bo'lsak, o'zbek tili grammatikasida ham izohlovchilar mavjud bo'lib, ularning aniqlovchining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Izohlovchi بدل , izohlanmish esa مبدل منه deyiladi va izohlovchi arab tilida izohlanmishdan keyin keladi.

Izohlovchi (بدل) o'z ichida bir necha qismlarga bo'linadi:

1) بدل كل من كل

2) بدل بعض من كل

3) بدل الإشتمال

4) البديل المباين

بدل كل من كل nomidan ham ayon bo'lib turibdiki, bu izohlovchi butun bosh bo'lakni o'zini izohlaydi ya'ni uning qaysidir qismini , qaysidir jihatini emas. U ma'noda izohlanmishga teng keladi.

Masalan:

قتل الخليفة عثمان وهو يقرأ القرآن - Xalifa Usmon (r.a.) Qur'on o'qiyotgan paytda o'ldirilgan.

قبلت صديقي علياً، فرحّبي - Do'stim Alini uchrattim va u meni tabrikladi.

Ushbu jumalalarda aynan qaysi xalifa ekanligini yoki aynan qaysi do'sti ekanligi izohlash maqsadida uni qayta nomlamoqda, agar unga xos sifatni keltirganda bu izohlovchi , izohlanmish munosabatidagi birkma emas, balki sifatlovchi aniqlovchi birikma bo'lgan bo'lar edi.

Aynan so'zni boshqa nom bilan nomlash orqali izohlaganligi sababli uni " البديل المطابق " deb ham nomlashadi.

بدل بعض من كل bu butuning bir qismini izohlashdir. Uni gapda tushirib qoldirish gapning umumiy ma'nosiga ta'sir qiladi ya'ni to'g'ri bo'lmaydi.

Masalan:

أكلتُ الرغيفَ ثلثه – Nonning uchdan bir qismini yedim.

قرأتُ الكتابَ نصفه - Kitobning yarmini o'qidim.

Izohlovchining bu turini yasashdan izohlanmishga mos qaytuvchi olmosh izohlovchiga qo'shib yoziladi va izohlovchi esa unga to'liq moslashgan holda bo'ladi. Bu turni yasashida asosan miqdor bildiruvchi so'zlar: كَثِيرٌ، قَلِيلٌ، بَعْضٌ، kabilardan foydalaniladi.

Ammo, ba'zi o'rinlarda ma'no jihatidan butunning ma'lim qismini anglatuvchi so'zlar ham bu turni hosil qilishi mumkin.

Masalan:

Oli Imron surasining 97-oyatida: ﴿وَلِلَّهِ عَلَى النَّاسِ حِجُّ الْبَيْتِ مَنِ اسْتَطَاعَ إِلَيْهِ سَبِيلًا﴾ (Odamlardan yo'lini topganlarga Alloh uchun Baytni haj qilmoq burchdir.)

رَأَيْتُ قَوْمًا نَاسًا - qavomingdan odamlarni ko'rdim.

Yuqoridagi gaplarda miqdor bildiruvchi so'zlar ifoda etilmagan bo'lsa-da, gapning ma'nosidan butunning bir qismini ifodalab kelayotgani tushuniladi.

بدل الإشتمال da esa izohlanmishning qismi oid bo'lmagan bog'liqlik bo'ladi. Masalan:

نفعني زيدٌ علمه - Zaydning ilmi menga foyda berdi.

يُعجبني عمر عدله - Umarning adolati yoqadi.

Badalning ushbu turida ham mubdalun minhuga mos qaytuvchi olmosh badalga qo'shilgan holatda keladi va u o'zi ergashib kelayotgan so'zning holatiga to'liq moslashadi hamda uning gapdagi sintaktik vazifasini bajaradi, o'zbek tiliga tarjima qilinganda esa qaratqich aniqlovchi birikmasi holida tarjima qilinadi.

البدل المباين bu izohlovchining boshqa turlaridan farq qiladi. Sababi bu tarjimasidan ham bilinib turibdiki, mubdalun minhuni izohlashdan maqsadi uni to'g'rilash, yanglish aytilganini o'rniga to'g'risini zikr qilishdir. Masalan:

تصدقتُ بدرهمٍ دينارٍ - Men dirhamda, yog'e dinorda sadaqa qildim.

Bu gapda notiq birinchi uni dirham deb o'ylagan va uni dinor ekanligini bilgach uni ham ayon qilgan. Bu xatolikni tuzatish maqsadida qo'llaniladigan badal turi hisoblanadi. Ma'noviy vazifasi jihatidan ham boshqa badalning turlaridan farq qiladi. Lekin u ham qolgan turlar singari izohlanmishga to'liq moslashadi.

Aynan shu jihatiga ko'ra u bog'lovchisi bilan bir xil vazifa bajaradi.

Shu sababli ham Ibn Molik va Ibn Oqil badalni turlarga ajratish borasuda turlicha yondashishgan. Ibn Molik badalni uch qismga ajratgan, ya'ni oxirgi zikr qilingan turni bog'lovchi kabi to'g'rilash maqsaida kelgan va boshqa izohlovchi singari vazifa bajarish maqsadida ishlatilmagan deb hisoblaydi. Ibn Oqil esa aksincha u boshqa ma'noni

ifodalash maqsadida qo'llanilayotgan bo'lsa-da, baribir izohlab kelmoqda, deb hisoblaydi.

Shuningdek, izohlovchi izohlanmish bilan doim ham bir xil holatda bo'lmasligi mumkin. Masalan, izohlonmish noaniq holatda izohlovchiesha aniq holatda bo'lishi ham mumkin. مرثٌ بأخيك رجلٌ صالحٍ (Solih inson akangning oldidan o'tdim.) jumlasida ham xuddi shunday holat kuzatiladi va bunda izohlovchi birikma holda ifodalangan.

Yoki buning teskari ham bo'lishi mumkin: مرثٌ برجلٍ زيدٍ (Zayd ismli bir insonning oldidan o'tdim).

Bu misolda atoqli otlar doim aniq holatdagi ot hisoblanganligi sababli ham badalimiz aniq holatda mubdalun minhu esa noaniq holatda kelgan, deya olamiz.

Shu bilan birgalikda arab tilida fe'lni fe'lga badal qilishimiz ham mumkin.

Butun boshli gapning izohlovchisi sifatida birgina so'z ham qo'llanishi mumkin.. Bu holatga asosan she'riyatda, Qur'oni Karimda duch kelinadi:

(وَلَمْ يَجْعَلْهُ عِوَجَاسٍ * قَيِّمًا)

Kahf surasining birinchi oyatidagi butun boshli jumlaning izohi sifatida birgina so'z(قيما) ifodalanmoqda.

Shu tarkibda ismlar so'roq olmoshlariga hamda shart yuklamalariga badal bo'lib kelishi mumkin.

Masalan:

من جاءك؟ أعلِي أم خالد؟ - Sening oldingga kim keldi Alimi yoki Xolidmi?

ما صنعت؟ أخيراً أم شرّاً؟ - Nima qip qoyding? Yaxshilikmi yoki yomonlik?

من يجتهد، إن عليوان خالد فأكرمه - Kim tirishqoqlik qilsa, xoh Ali , xoh Xolid uni ikrom qilaman.

Dastlabki jumlada من so'roq olmoshiga Ali so'zi izohlovchi bo'lib kelayotgan bo'lsa, ikkinchi jumladagi ما so'roq so'ziga yaxshilik so'zi izohlovchi bo'lib kelmoqda, ushbu so'roq so'z gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajarib kelayotganligi sababli ham uning izohlovchisi ham tushum kelishigida turlangan holda kelmoqda.

Uchinchi jumlada esa من shart yuklamasiga Ali so'zi izohlovchi bo'lib kelgan Xolid so'zi esa Ali so'ziga atf qilingan deb hisoblanadi. O'zbek tilida ushbu holatda izohlovchilar uyushib kelgan deb hisoblanadi